

VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yilning 1- yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 84 631 tani tashkil qilib, shundan 67 966 tasi yoki 78,5 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar asosan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasiga 31 802 ta (37,6 foizi), savdo 20 409 ta (24,1 foizi), sanoat 9 396 ta (11,1 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 4 934 ta (5,8 foizi), qurilish 3 690 ta (4,4 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni


	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	yakunga nisbatan, % da	birlik	yakunga nisbatan, % da
Jami	84 631	100,0	67 966	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31 802	37,6	18 136	26,7
Sanoat	9 396	11,1	8 854	13,0
Qurilish	3 690	4,4	3 559	5,2
Savdo	20 409	24,1	19 019	28,0
Tashish va saqlash	1 298	1,5	1 252	1,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 934	5,8	4 620	6,8
Axborot va aloqa	923	1,1	875	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1 107	1,3	1 070	1,6
Boshqa turdagi xizmatlar	11 072	13,1	10 581	15,6

Ro'yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 5,0 foizi davlat va 95,0 foizi nodavlat mulki shaklidagi korxonalar hisoblanadi.

Ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar (umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)



01.01.2022- y.




01.01.2023- y.


Ro'yxatga olingan korxonalarining 95,0 foizini nodavlat mulki shaklidagi korxonalar tashkil qilib, jami nodavlat shaklidagi korxonalarining 11,0 foizi xususiy korxonalar, 1,0 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 13,3 foizi oilaviy korxonalar va 69,7 foizi boshqa korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Ro'yxatga olingan nodavlat mulkidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar (umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)

01.01.2022- y.



01.01.2023- y.



- Oilaviy korxonalar
- Xususiy korxonalar mulki
- Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar
- Boshqa mulkchilik shakllari


2022- yil yanvar-dekabr oylarida jami 11 018 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan. Ularning asosiy qismi Samarqand shahrida (24,3 foizi), Pastdarg'om (8,5 foizi), Urgut (8,5 foizi), Samarqand (8,1 foizi), Ishtixon (6,1 foizi), Kattaqo'rg'on (5,5 foizi), Payariq (5,2 foizi), Oqdaryo (5,0 foizi), Bulung'ur (4,8 foizi) va Toyloq (4,7 foizi) tumanlariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 46,2 foizi savdo, 14,9 foizi sanoat, 10,7 foizi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 10,0 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,2 foizi qurilish, 1,9 foizi axborot va aloqa, 1,6 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 foizi tashish va saqlash hamda 10,3 foizi boshqa sohalarga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2023- yil 1- yanvar holatiga viloyatda jami 710 ta xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 446 tasi qo'shma korxonalar, 264 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida (330 ta yoki 46,5 foizi), Urgut (56 ta 7,9 foizi), Jomboy (48 ta 6,8 foizi), Samarqand (42 ta 5,9 foizi), Pastdarg'om (35 ta 4,9 foizi), Oqdaryo (33 ta 4,6 foizi), Bulung'ur (25 ta 3,5 foizi), Kattaqo'rg'on shahrida (25 ta 3,5 foizi), Qo'shrabot (22 ta 3,1 foiz), Ishtixon (18 ta 2,5 foiz), Payariq (17 ta 2,4 foiz), Kattaqo'rg'on (16 ta 2,3 foizi), Toyloq (14 ta 2,0 foizi) va Nurobod (13 ta 1,8 foizi) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Paxtachi (10 ta 1,4 foizi) va Narpay (6 ta 0,8 foizi) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


	Soni	ulushi, % da
Viloyat bo'yicha	710	100,0
Samarqand sh.	330	46,5
Kattaqo'rg'on sh.	25	3,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	33	4,6
Bulung'ur	25	3,5
Jomboy	48	6,8
Ishtixon	18	2,5
Kattaqo'rg'on	16	2,3
Qo'shrabot	22	3,1
Narpay	6	0,8
Payariq	17	2,4
Pastdarg'om	35	4,9
Paxtachi	10	1,4
Samarqand	42	5,9
Nurobod	13	1,8
Urgut	56	7,9
Toyloq	14	2,0

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Sohalar kesimida ushbu ma'lumotlar 2023- yilning 1- yanvar holatiga qaralganda eng ko'p sanoatda 309 ta (43,5 foiz), savdoda 145 ta (20,4 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 75 ta (10,6 foiz), boshqa turlarida esa 66 ta (9,3 foiz), qurilishda 43 ta (6,1 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 33 ta (4,6 foiz)ni tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 14 ta (2,0 foiz), tashish va saqlashda 13 ta (1,8 foiz) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 12 ta (1,7 foiz)ni tashkil qilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



2022- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha viloyatda jami 86 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi Samarqand shahrida 48 ta, Samarqand tumanida 9 ta, Urgut tumanida 7 ta, Jomboy tumanida 4 ta, Payariq va Ishtixon tumanlarida 3 tadan tashkil etilgan, Kattaqo'rg'on shahar, Oqdaryo, Bulung'ur, Narpay, va Pastdarg'om 2 tadan tashkil etilgan, Qo'shrabot va Paxtachi tumanlarida 1 tadan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 34 ta, sanoatda 21 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 9 ta, axborot va aloqada 6 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 5 ta, qurilishda 4 ta va boshqa sohalarda 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2023- yil 1- yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 47 943 tani tashkil qilib o'tgan yilga nisbatan 117,7 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi, ya'ni 13 775 tasi (28,7 foizi) Samarqand shahriga, 4 189 tasi (8,7 foizi) Urgut, 4 061 tasi (8,5 %) Pastdarg'om hamda 3 551 tasi (7,4 %) Samarqand tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2022- yil yanvar-dekabr oylari davomida 10 613 ta kichik tadbirkorlik subyektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, Samarqand shahrida (2 605 ta), Pastdarg'om (919 ta), Urgut (892 ta), Samarqand (870 ta), Ishtixon (660 ta), Kattaqo'rg'on (558 ta) va Oqdaryo tumanlarida (537 ta) tashkil etilgan. Eng kam yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari esa Qo'shrabot (244 ta) tumaniga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari, birlikda



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga 11 235 tani tashkil etib, ulardan 10 499 tasi yoki 93,9 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi, ya'ni 2 440 tasi Samarqand shahriga, 1 174 tasi Pastdarg'om, 1 086 tasi Samarqand hamda 962 tasi Payariq tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda oilaviy korxonalarining 40,5 foizi yoki 4 254 tasi savdoda, 23,7 foizi yoki 2 493 tasi sanoatda, 20,8 foizi yoki 2 189 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,8 foizi yoki 715 tasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 0,9 foizi yoki 90 tasi axborot va aloqada, 0,6 foizi yoki 60 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,6 foizi yoki 58 tasi qurilishda, 0,5 foizi yoki 55 tasi tashish va saqlashda hamda 5,6 foizi yoki 585 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Korxonalar va tashkilotlarning (dehqon va fermer xo'jaliklarsiz) hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda

	<i>Ro'yxatga olingan</i>			
	<i>01.01.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.01.2023- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	49 370	43 130	57 511	51 025
Samarqand sh.	14 141	12 564	16 312	14 675
Kattaqo'rg'on sh.	1 626	1 445	1 816	1 631
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	2 107	1 852	2 524	2 259
Bulung'ur	1 974	1 689	2 422	2 125
Jomboy	1 959	1 708	2 275	2 014
Ishtixon	2 644	2 319	3 100	2 764
Kattaqo'rg'on	2 512	2 158	2 959	2 594
Qo'shrabot	1 142	907	1 356	1 106
Narpay	1 575	1 276	1 819	1 513
Payariq	2 622	2 259	3 056	2 676
Pastdarg'om	4 179	3 668	4 905	4 385
Paxtachi	1 313	1 052	1 537	1 268
Samarqand	3 746	3 428	4 206	3 879
Nurobod	1 540	1 313	1 827	1 582
Urgut	4 182	3 654	4 872	4 317
Toyloq	2 108	1 838	2 525	2 237

davomi

	<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>			
	<i>01.01.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.01.2023- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	46 667	40 724	54 163	47 943
Samarqand sh.	13 414	11 953	15 309	13 775
Kattaqo'rg'on sh.	1 531	1 351	1 723	1 539
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1 945	1 701	2 322	2 068
Bulung'ur	1 891	1 619	2 296	2 012
Jomboy	1 885	1 650	2 181	1 934
Ishtixon	2 513	2 206	2 919	2 595
Kattaqo'rg'on	2 428	2 085	2 804	2 450
Qo'shrabot	1 076	847	1 273	1 029
Narpay	1 542	1 254	1 762	1 467
Payariq	2 438	2 089	2 837	2 472
Pastdarg'om	3 901	3 408	4 566	4 061
Paxtachi	1 264	1 017	1 457	1 203
Samarqand	3 389	3 085	3 865	3 551
Nurobod	1 431	1 211	1 753	1 514
Urgut	4 038	3 532	4 726	4 189
Toyloq	1 981	1 716	2 370	2 084

davomi

	<i>Faoliyat ko'rsatmayotgan</i>			
	<i>01.01.2022 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.01.2023 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	2 703	2 406	3 348	3 082
Samarqand sh.	727	611	1 003	900
Kattaqo'rg'on sh.	95	94	93	92
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	162	151	202	191
Bulung'ur	83	70	126	113
Jomboy	74	58	94	80
Ishtixon	131	113	181	169
Kattaqo'rg'on	84	73	155	144
Qo'shrabot	66	60	83	77
Narpay	33	22	57	46
Payariq	184	170	219	204
Pastdarg'om	278	260	339	324
Paxtachi	49	35	80	65
Samarqand	357	343	341	328
Nurobod	109	102	74	68
Urgut	144	122	146	128
Toyloq	127	122	155	153

davomi

	<i>Yangi tashkil etilgan</i>			
	<i>01.01.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.01.2023- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	11 063	10 814	10 877	10 613
Samarqand sh.	2 833	2 734	2 672	2 605
Kattaqo'rg'on sh.	311	301	316	310
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	611	601	545	537
Bulung'ur	426	421	519	505
Jomboy	450	440	464	455
Ishtixon	667	656	671	660
Kattaqo'rg'on	577	563	572	558
Qo'shrabot	226	224	257	244
Narpay	318	310	327	318
Payariq	573	564	552	535
Pastdarg'om	1 074	1 065	929	919
Paxtachi	322	313	301	293
Samarqand	869	860	884	870
Nurobod	413	408	428	411
Urgut	920	886	921	892
Toyloq	473	468	519	501

davomi

	<i>Faoliyati tugatilgan</i>			
	<i>01.01.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.01.2023- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	2 852	2 765	2 734	2 699
Samarqand sh.	846	820	483	473
Kattaqo'rg'on sh.	98	94	117	114
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	105	101	125	124
Bulung'ur	51	50	74	72
Jomboy	63	56	160	158
Ishtixon	221	212	219	216
Kattaqo'rg'on	79	77	126	125
Qo'shrabot	79	72	51	51
Narpay	84	80	78	77
Payariq	175	171	108	107
Pastdarg'om	336	334	210	209
Paxtachi	65	62	82	81
Samarqand	163	160	418	413
Nurobod	65	63	139	138
Urgut	311	303	240	238
Toyloq	111	110	104	103